

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
MINTAQAVIY BO'LIMI  
XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI**

# **XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI**

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo'jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

**2025-7/4  
Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi  
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

**Xiva-2025**

<b>Kozokboeva D.I.</b> Lexical-semantic features of boys' speech: a scientific overview	110
<b>Kozokboeva D.I.</b> Gender stereotypes in english boys' speech	113
<b>Kubayeva N.</b> Frazeologik birliklarning zamonaviy adabiyotda lingvokulturologik tahlili	115
<b>Kudaybergenova G.</b> Qoraqalpoq tilida morfologik badiiy takrorlar	119
<b>Lapasov N.Sh.</b> Tolerantlik konseptining kommunikativ kategoriyasining kognitiv, pragmatik taxlili	122
<b>Latipjonova M.O.</b> Baho kategoriyasining lingvistik tizimdagi o'rni va yondosh kategoriyalar bilan munosabati	125
<b>Madiyeva M.Yu.</b> Medialingvistikada brend nominatsiyasining ilmiy-nazariy asoslari	129
<b>Majitova A.T.</b> Bir tildan ikkinchi tilga kod almashtirish hodisasini o'rganishda John Gumperzning o'rni	132
<b>Mamadaliyeva D.K.</b> Sharq va g'arb adabiyotida ota va farzand munosabatlari: "Layli va Majnun" hamda "Qiro'l Lir" asarlari asosida tahliliy qarash	134
<b>Mamaniyozov X.T.</b> "Oltin" konseptining konseptualizatsiya va kategorizatsiyalari munosabatlari	137
<b>Mamatova D.A.</b> Teodor Drayzer va Zulfiya Qurolboy qizi ijodida ayol taqdiri mavzui	140
<b>Mamatova F.M.</b> The role of conceptual metaphors in the process of conceptualization and categorization of anthropophenomena as categories	142
<b>Maxmudova K.N.</b> J. Orvel asarlarining g'oyaviy – badiiy xususiyatlari	146
<b>Muxammadiyeva U.X.</b> Ko'chma ma'noli ifodalarni tarjima qilishga kontsept nuqtai nazardan yondashuv	149
<b>Muzaffarov J.K.</b> Adabiy arxetiplar va ularning o'ziga xos jihatlari	152
<b>Namazova U.S.</b> Fake news tushunchasi va uning lingvistik talqini	155
<b>Nazarova G.P., Odilova N.N.</b> Ingliz hamda o'zbek folklor namunalarida spellonimlarning universal jihatlari	158
<b>Noraliyeva D.</b> "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonidagi qo'llanilgan raqamlarning lingvomadaniy talqini	160
<b>Po'latova O'A.</b> Ingliz tilida komissiv nutqiy axtarlarni ifodalovchi leksik-stilistik vositalar	163
<b>Qodirova N.Yu.</b> Bolalar adabiyotida stilistik vositalarning qo'llanilishi: "Garri potter" asari misolida	166
<b>Radjabova B.D.</b> Dilshod Rajabning "Kuch birlikda" she'riy ertagining g'oyaviy-badiiy maqsadi, xulosasi va xususiyatlari	168
<b>Rakhimova D.M.</b> Chet el adabiyotshunosligida janr poetikasiga oid tadqiqotlar	171
<b>Ravshanova M.Z.</b> Navkent qishlog'ining etimologiyasi va u yerda ishlatiladigan ayrim dialektal so'zlar	175
<b>Sadullayeva N.E.</b> Xorazm shevalari tasnifiga doir	177
<b>Saidova M.U.</b> Ingliz badiiy diskursida diskurs markerlarning kogerensiya ta'minotidagi roli	181
<b>Saidov X.Sh., Xolova Z.O.</b> Metafora tildagi asosiy stilistik vositalardan biri sifatida	183
<b>Salimova Kh.S.</b> The impact of globalization on english vocabulary expansion	186
<b>Saparova I.P.</b> Boylik konseptiga oid maqollarning paradigmatic tahlili	189
<b>Sa'dullayeva M.S.</b> O'g'uz shevalarida affiksalar polisemiylar va ularning tahlili	192
<b>Sherimbetova N.N.</b> Jahon tilshunosligida nutq aktining o'rganilishi	195
<b>Shishnyov D.D.</b> The role of natural language processing in enhancing user experience in intelligent systems	198
<b>Sidiqova M.</b> Tilshunoslikda termin bilan bog'liq ilmiy-nazariy qarashlar	201
<b>Suyunova M.I.</b> Nutqiy axtarlarning ijtimoiy kontekstdagi roli, til va madaniyatga ta'siri	203
<b>Tursunov M.M., Karimova S.N.</b> Ingliz va o'zbek tillarida "inson" obrazini ifodalaydigan frazeologik birliklarning lisoniy tahlili	207
<b>Tursunova Sh.I.</b> "Das Brot" hikoyasining o'zbek tarjimalarida ruhiy iztirobning ifodalanishi: qiyosiy-tahliliy yondashuv	210

UO'K 82-1/9

## INGLIZ HAMDA O'ZBEK FOLKLOR NAMUNALIRIDA SPELLONIMLARNING UNIVERSAL JIHATLARI

*G.P.Nazarova, f.f.f.d., dots., Buxoro davlat universiteti, Buxoro  
N.N.Odilova, o'qituvchi, Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti, Toshkent*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada folklor na'munalari xalqning tarixiy merosi va madaniyatining ajralmas qismi va ularda uchraydigan sehrli obrazlar, ya'ni spellonimlarning xususiyatlari haqida so'z boradi. Spellonimlarning sehrli obraz sifatidagi xususiyatlaru ingliz va o'zbek xalq og'zaki ijodidan na'munalar orqali tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** sehrli obrazlar, spellonimlar, xalq og'zaki ijodi, folklor, qadriyat

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются спеллонимы, магические образы как неотъемлемая часть исторического наследия и культуры народа. Через примеры устного народного творчества английского и узбекского народов проводится анализ. Эти образцы отражают мировоззрение, обычаи, верования и ценности народа.

**Ключевые слова:** магические образы, спеллонимы, устное народное творчество, фольклор, ценности.

**Abstract.** This article examines folklore samples as an integral part of the historical heritage and culture of the people, as well as magical images, i.e., spellonyms. The analysis is conducted through examples of oral folklore samples from the English and Uzbek peoples.

**Key words:** magical images, spellonyms, oral folk creativity, folklore, values.

Folklor na'munalari har bir xalqning ajdodlaridan saqlanib kelayotgan eng qadimiy va ko'hna an'analarni o'zida mujassamlantirgan badiiy na'munalardan biridir. Ko'p asrlik folklor an'analari halqning turmush tarzi, tarixi, dunyoqarashi, e'tiqodiy qarashlari haqida ma'lumot beradi. Ularni tadqiq va targ'ib qilish orqali tarixga oid yangidan yangi ma'lumotlarni bilib olish mumkin. Shuning uchun barcha xalqlar orasida afsonalarni,ertaklarni va folklor na'munalini chuqur o'rganishga alohida ahamiyat qaratib kelinmoqda. Ayrim afsonalar syujetida personajning mifologik timsollar bilan to'qnash kelishi yoki jang qilishi tasvirlanadi. Bunday afsonalar syujet motivlarining qiziqarliligi jihatidan xalq ertaklariga, uning personaji esa ertak qahramonlariga yaqin turadi va tinglovchilarga katta badiiy zavq bag'ishlaydi.

O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari ilgari surilgan ezgu g'oyalar xalq pedagogikasi bilan chambarchas bog'liqligi katta ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari o'zbek folklori elshunoslik (etnografiya), shevashunoslik (dialektologiya),til va adabiyot tarixi, madaniyatshunoslik, musiqa, adabiyot nazariyasi, tilshunoslik, tarix, arxeologiya kabi bir qator fanlar bilan ham uzviy aloqada bo'ladi. Qadimgi davr folklori manbai bo'lmish «Avesto», «O'g'uznoma»,O'rxun-Enasoy toshbitiklari,Mahmud Qoshg'ariyning «Devoni lug'atit - turk» asari kabi yodgorliklar ayni paytda o'zbek adabiyoti tarixining ham o'rganish manbaidir. Shuni ham ta'kidlash zarurki, folklor namunalari tilshunoslikning ham o'rganish manbai hisoblanadi. Folklor asarlarida tilga olingan ko'plab ma'lumotlar arxeologik topilmalar orqali isbotlanmoqda.

Xalqimizning uzoq yillik boy tarixi, urf - odatlari, ezgu fiqatlarli folklor asarlarida badiiy in'ikosini topganligi vatanimiz tarixini o'rganishda katta ahamiyat kasb etadi. [1,14]. Avesto Yasht kitobini oladigan bo'lsak, uning birinchi yashtida sehrli obraz – devni (spellonim) uchratish mumkin.

Masalan,

*Bul so'z uta muzaffar,*

*Bul so'z uta hozikdir,*

*Ul odamlar va devlar<sup>1</sup>*

*Yovlugin barbod etar.*

*Bu borliq ichra shu so'z*

*Ezgulikka yurilgan.*

*Foniy ichra bu so'zdir*

*Damimdan poklanib*

*Yaralgan ul ruh.*

Mazda (Ahuramazda) dini yuzaga kelmasdan oldin ajdodlarimiz devlarni ham turli hayotiy holatlarda himoyachi kuchlar, deb tushungan. Ertaklardagi "ijobiy" devlar shu qarashlarning qoldig'idir. Faqat Ahura Mazda ga e'tiqod tarqib qilingan paytda devlar qora kuchlar sifatida la'natlangan.

*Kabih karapanlarning*

*Ustidan bo'lsin hukmim.*

*Varna xizmatkorlari*

*Mozan<sup>2</sup> devlarni kiray,*

*Ular qahrin yo'q qilay.*

Xalq og'zaki ijodi O'g'uznomada, O'g'uz xonning uylanishi bilan bog'liq voqealar shundan dalolat beradi. "Kunlardan bir kun O'g'uz xoqon bir erda Tangriga yorvorayotgan edi. Qorong'u tushganda, ko'kdan bir ko'k nur tushdi. Quyoshdan yorug', oydan yorqinroq edi. O'g'uz xoqon u tomonga yurdi. Ko'rsaki, o'sha yorug'likning orasida bir qiz bor edi. Bu parchada spellonim sehrli tarzda paydo bo'lgan qizdir. Qiz ko'k nur ichida tushadi — bu uni oddiy inson emas, balki sehrli, ilohiy obraz ekanini bildiradi. "Ko'k" turkiy madaniyatda muqaddas osmon, ilohiyramzi hisoblanadi. Ko'kdan qizning tushishi sehrli jarayon bo'lib, yorug'likdagi qiz — go'zallik, poklik, ilohiy baraka, nasl davomchiligining timsolidir. Bu tasvir ertaklar, dostonlar va mifologik rivoyatlarga xos bo'lgan sehrli hodisalar, qudratli kuchlar ishtiroki bilan boyitilgan. [ 4, 2]

Ingliz tilidagi eng mashhur xalq balladalaridan biri Francis James Child tomonidan yig'ilgan "Child Ballads" to'plamidir. Ballada Janet ismli jasur ayol obrazi orqali folklorida kam uchraydigan ayol faoliyati ko'rsatadi. Tam Lin — parilar tomonidan o'g'irlab ketilgan inson bo'lib, u sehrli kuchlar ostida yashashga majbur. U yilning sehrli sanasida — Samhain kechasi (31-oktabr) — qurbonlik sifatida tanlanadi. Bu kechada parilar va jinlar o'zlarining odatdagi yashirin olamlaridan chiqib, insonlar olamida yurish qilishadi (ingliz folklorida bu "The Fairy Ride" deb ataladi). Parilar Malikasi (Fairy Queen) kuchli, hukmron, sovuq, yovuz obraz. Tam Linni o'z olamida tutib turadi. Sehrli kuchlar va insoniy erkinlik o'rtasidagi ziddiyat kuzatiladi. Tam Lin inson, lekin sehrli olamda yashaydi. U "liminal" (oralik) makonda joylashgan — qisman odam, qisman pari bo'lib, qutqarilish orqali insonlikka qaytadi.

*"They'll turn me to a bear sae grim,*

*And then a lion bold,*

*But hold me fast, and fear me not,*

*And ye shall love your child.*

*"Again, they'll turn me in your arms*

*To a red het gand of airn,*

*But hold me fast, and fear me not,*

*I'll do you nae harm. [ 3, 56]*

*"Meni avval yovuz bir ayiqqa aylantirishadi,*

*So'ngra jasur sherga,*

*Ammo mahkam ushla, qo'rqma mendan,*

*Shunda farzandingni yaxshi ko'rarsan.*

*"Yana meni bag'ringda*

*Qizib turgan temir novdaga aylantirishadi,*

*Lekin mahkam ushla, qo'rqma mendan,*

*Men senga zarar yetkazmayman."*

Bu parcha— Janetning jasarati va sevgisi sinovdan o'tayotgan payt. Tam Lin jinlar tomonidan olib ketilgan, va ularni tark etish uchun bu og'ir sehrli sinovlardan o'tishi kerak.

Folklor na'munalari xalqning tarixiy va madaniyatining ajralmas qismidir. Ular xalqning dunyoqarashini, urf-odatlarini, e'tiqodlarini va qadriyatlarini aks ettiradi. Ayniqsa, afsonalar, ertaklar va folklor asarlari xalqning qadimiy an'analarini saqlab qolishga yordam beradi va

shu bilan birga, turli davrlarning ijtimoiy va madaniy holatlarini o'rganishda muhim manbalar sifatida xizmat qiladi. Folklor asarlari, ayniqsa, og'zaki ijodning namunalarida, xalq pedagogikasi va dunyoqarashi bilan bog'liq ezgu g'oyalari keng tarqalgan. Bularni o'rganish orqali biz nafaqat xalqning tarixini, balki uning ruhiyatini, tilini va madaniyatini ham chuqur anglashimiz mumkin. O'zbek folklorida, xususan "Avesto", "O'g'uznoma" kabi qadimiy manbalar va ularning timsollaridagi mitologik obrazlar, masalan, devlar, sehrli obrazlar va qudratli kuchlar, xalqning qadimiy dunyoqarashini aks ettiradi. "Avesto" da devlar dastlab himoyachi kuch sifatida tasvirlangan bo'lsa, Zardushtiylilik tarqalganidan keyin ular yovuz kuchlar sifatida qoralangan. O'zbek xalq og'zaki ijodida esa sehrli obrazlar, ilohiy timsollar va ular orqali ko'rsatilgan qahramonlarning tasvirlari xalqning diniy, falsafiy va madaniy qarashlarini ifodalaydi. O'zbek folkloridagi sehrli obrazlar ko'proq axloqiy saboq beruvchi, diniy va milliy qadriyatlarini ko'rsatadigan tarzda yaratilgan bo'lsa, ingliz folkloridagi sehrli mavjudotlar esa sarguzasht, fantastika bilan boyitilgan. Har biri o'z xalqining dunyoqarashi, e'tiqodi va tarixini aks ettiradi.

Xulosa qilib aytganda, xalqning qadimiy tarixiy va madaniy boyliklari, jumladan, afsonalar va ertaklardagi sehrli obrazlar, nafaqat xalq ijodining go'zalligini, balki uning ma'naviy dunyosini ham boyitadi. Bu na'munalar insoniyatning umumiy madaniy merosiga hissa qo'shish bilan birga, zamonaviy tadqiqotlar va ilmiy sohalarga ham muhim ma'lumotlar taqdim etadi. Demak, folklor asarlarini o'rganish xalqning madaniyatini, tarixini va dunyoqarashini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbek tarixiy-inqilobiy folklori. Maxsus kurs uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: ToshDPI, 1988. – 90
2. Avesto: Yasht Book / Translation by M. Iskhak. — Tashkent: "Shark", 2001 — 128 pages.
3. *The English and Scottish Popular Ballads*, 1882-1898 by Francis James Child
4. <https://adabiyot.islamonline.uz/uzbek/adabiyot-tarixi/127-oguz.pdf>

UO'K 81'37

## “GO'RO'G'LINING TUG'ILISHI” DOSTONIDAGI QO'LLANILGAN RAQAMLARNING LINGVOMADANIY TALQINI

*D.Noraliyeva, mustaqil tadqiqotchi, Qarshi davlat universiteti, Qarshi*

**Annatsiya.** Xalq og'zaki ijodi namunasi bo'lgan “Go'ro'g'lining tug'ilishi” dostoni matni tadqiqi orqali asarda qo'llangan til birliklari (evfemizmlar, teonimlar, ramzlar, pretsedent nomlar) asarning lingvokulturologik jihatlari ochib berish maqsad qilingan. Buni tahlil qilish bevosita doston badiiyatini o'rganish bilan birga xalqning ma'naviy qiyofasi, dunyoqarashi, tafakkur tarzi, madaniya saviyasi qanday bo'lganini yoritib berishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** og'zaki ijod, teonim, pretsedent nomlar, lingvokultrema, lingvoma'naviyat, ramzlar, e'tiqod, ma'naviy qiyofa.

**Аннотация.** Целью исследования является раскрытие лингвокультурологических аспектов произведения путем анализа языковых единиц (эвфемизмов, теонимов, символов, прецедентных имен), использованных в тексте дастана “Гуруглининг тугилиши” являющегося образцом устного народного творчества. Анализ этого, наряду с непосредственным изучением художественности дастана, служит для освещения духовного облика народа, его мировоззрения, образа мышления и уровня культурного развития.

**Ключевые слова:** устное творчество, теоним, прецедентные имена, лингвокультурема, лингводуховность, символы, вера, духовный облик.

**Abstract.** The aim of this study is to uncover the linguocultural aspects of the work by analyzing linguistic units (euphemisms, theonyms, symbols, and precedent names) used in the text of the dastan “Go'ro'g'lining tug'ilishi” which is an example of oral folk literature. The analysis of this, alongside a direct study of the dastan's artistry, serves to illuminate the spiritual character of the people, their worldview, mode of thinking, and level of cultural development.

**Keywords:** oral creativity, theonym, precedent names, linguocultureme, linguospirituality, symbols, faith, spiritual appearance.